

14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganligining 33 yilligi

14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni hamda **O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganligining 33 yilligi** munosabati bilan Samarqand davlat chet tillari instituti akademik litseyining erkak o'qituvchilari erta tongdan iliq kayfiyatda kutib olinib tabriklandi. Tadbir davomida ta'lim jarayonining fidoyi ustozlariga alohida hurmat va e'tibor ko'rsatilib, ularning yoshlarga bilim va tarbiya berishdagi mehnatlari yuksak qadrlanishi ta'kidlandi.

O'qituvchilar – yosh avlod qalbida vatanparvarlik tuyg'usini uyg'otuvchi, yurt kelajagini mustahkamlovchi chinakam yo'l boshchilardir. Barcha ustozlarimizga mustahkam sog'lik, kuch-g'ayrat va ulkan zafarlar tilaymiz! Sizlarning mehnatingiz doimo qadrlidir!".









SamDChTI akademik litseyi axborot xizmati